FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI
ILMIY-METODIK JURNAL
ISSN 3093-8694 ◆ saen.uz
2026-yil
10 (2)-son

UDK: 159.923.3:378

Zohidov Samandar,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti izlanuvchisi

MASOFAVIY VA KUNDUZGI TA’LIM TALABALARIDA INTELLEKTUAL VA SHAXSLILIK XUSUSIYATLARI O‘RTASIDAGI BOG‘LANISHLAR TUZILMASI

Annotatsiya. Maqolada masofaviy (n=412) va kunduzgi (n=430) ta’lim shaklida tahsil olayotgan 842 nafar talabada J.Ravenning progressiv matritsalari metodikasi ko‘rsatkichlari bilan R.Kettellning 16PF so‘rovnomasi, Katta beshlik so‘rovnomasining qisqartirilgan shakli va M.Rokichning qadriyat yo‘nalishlari metodikasi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘lanishlar har bir guruhda alohida tahlil qilingan. Ikki guruhda ham intellektual ko‘rsatkichlar mantiqiy fikrlash (B) va normativlik (G) omillari bilan ijobiy, xayolparastlik (M) omili bilan manfiy bog‘langani, Katta beshlik omillari va qadriyatlar esa intellekt bilan amalda bog‘lanmagani aniqlangan. Fisher r-to-z aylantirishi asosida 345 ta juftlikdan 26 tasida guruhlararo farq ahamiyatli bo‘lib, ikki juftlikda bog‘lanish yo‘nalishi qarama-qarshi ekani ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: masofaviy ta’lim, kunduzgi ta’lim, intellekt, shaxslilik xususiyatlari, 16PF, Katta beshlik, korrelyatsion tuzilma, Fisher mezoni.

СТРУКТУРА СВЯЗЕЙ МЕЖДУ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫМИ И ЛИЧНОСТНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ СТУДЕНТОВ ДИСТАНЦИОННОЙ И ОЧНОЙ ФОРМ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. В статье на выборке 842 студентов дистанционной (n=412) и очной (n=430) форм обучения раздельно для каждой группы проанализированы связи показателей прогрессивных матриц Дж. Равена с факторами опросника 16PF Р. Кеттелла, краткой формы опросника Большой пятёрки и методики ценностных ориентаций М. Рокича. В обеих группах интеллектуальные показатели положительно связаны с факторами логического мышления (B) и нормативности (G) и отрицательно – с фактором мечтательности (M); факторы Большой пятёрки и ценности с интеллектом практически не связаны. По критерию Фишера (r-to-z) различия между группами значимы в 26 из 345 пар, в двух парах направление связи противоположно.

Ключевые слова: дистанционное обучение, очное обучение, интеллект, личностные особенности, 16PF, Большая пятёрка, корреляционная структура, критерий Фишера.

STRUCTURE OF RELATIONSHIPS BETWEEN INTELLECTUAL AND PERSONALITY CHARACTERISTICS IN DISTANCE AND FULL-TIME UNIVERSITY STUDENTS

Abstract. The article analyses, separately for each group, the relationships between Raven's Progressive Matrices scores and the factors of Cattell's 16PF, a short form of the Big Five inventory and Rokeach's value orientations in 842 distance (n=412) and full-time (n=430) students. In both groups intellectual scores correlated positively with Reasoning (B) and Rule-Consciousness (G) and negatively with Abstractedness (M), whereas the Big Five factors and values were practically unrelated to intelligence. Fisher's r-to-z test

showed significant group differences in 26 of 345 pairs, with opposite directions of association in two pairs.

Key words: distance learning, full-time learning, intelligence, personality traits, 16PF, Big Five, correlational structure, Fisher's test.

KIRISH

Oliy ta’limda masofaviy ta’lim shaklining joriy etilishi va ta’lim olish shakllarining tengligi qonunchilikda mustahkamlangani[1; 2] bu shaklda tahsil olayotgan talabalar sonining tez ortishiga olib keldi. Masofaviy ta’lim muhiti o‘quv faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilish yukini ko‘p jihatdan talabaning o‘ziga o‘tkazadi, o‘qituvchi va guruhdoshlar bilan bevosita muloqot esa kamayadi. A.V.Leybina va G.A.Shukuryanning xorijiy tadqiqotlar sharhida onlayn ta’lim samaradorligi ko‘p jihatdan talabaning o‘z o‘quv faoliyatini mustaqil tashkil eta olishiga bog‘liqligi ko‘rsatilgan[3]. J.Broadbent va W.Poon tizimli sharhiga ko‘ra, onlayn ta’limda akademik natija bilan eng izchil bog‘langan omillar vaqtni boshqarish, metakognitiv nazorat va harakatni boshqarish kabi o‘zini o‘zi boshqarish strategiyalaridir[4]. S.Vos va boshqa tadqiqotchilarning masofaviy ta’lim talabalarida o‘tkazgan tadqiqotlari ham bu talabalar o‘zini o‘zi boshqarish profillari bo‘yicha bir-biridan sezilarli farq qilishini ko‘rsatadi[5].

Turli ta’lim shakllaridagi talabalarning shaxsiy xususiyatlari MDH mamlakatlarida ham o‘rganilgan. S.P.Yelshanskiy va boshqa tadqiqotchilar turli ta’lim shakllari va kurslarda tahsil olayotgan talabalarning ijobiy shaxsiy sifatlarini qiyosiy tahlil qilganlar[6]. Shaxs xususiyatlarining o‘qishdagi ahamiyatiga oid xorijiy tadqiqotlarda T.Chamorro-Premuzic va A.Furnham shaxs omillari universitet talabalarining akademik natijalarini bashorat qilishini ikki bo‘ylama tanlanmada ko‘rsatgan[7], T.Bidjerano va D.Dai esa Katta beshlik omillarining o‘quv faoliyatini o‘zi boshqarish strategiyalari bilan bog‘liqligini aniqlagan[8]. Ushbu tadqiqotlardan ko‘rishimiz mumkinki, talabaning o‘qishdagi muvaffaqiyati intellekt bilan bir qatorda shaxsning faoliyatni tashkil etish xususiyatlariga ham bog‘liq.

Intellekt va shaxslilik xususiyatlarining o‘zaro bog‘liqligi masalasida K.Stanek va D.Ones meta-tahlili bu ikki soha o‘rtasidagi bog‘lanish faqat tajribaga ochiqlik omili bilan cheklanmasligini, bog‘lanishlarning aksariyati kuchsiz, ammo izchil ekanini ko‘rsatgan[9]. S.I.Malaxova tadqiqotida talabalarning psixometrik intellekti bilan shaxsiy o‘zini o‘zi boshqarishi o‘rtasidagi bog‘lanishlar o‘rganilgan[10]. Biroq bu bog‘lanishlar tuzilmasining ta’lim shakliga ko‘ra qiyosiy tahlili respublikamizda amalga oshirilgan tadqiqotlarda uchramaydi. Holbuki, guruhlar o‘rtacha ko‘rsatkichlar bo‘yicha farqlanmagan holatda ham xususiyatlarning o‘zaro munosabati turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, bir xil darajadagi mustaqillik bir ta’lim muhitida intellektual faoliyatni qo‘llab-quvvatlashi, boshqasida esa u bilan bog‘lanmasligi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi – masofaviy va kunduzgi ta’lim talabalarida intellektual ko‘rsatkichlar bilan shaxslilik, qadriyat va motivatsion xususiyatlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar tuzilmasini aniqlash va uni ikki guruhda qiyoslashdan iborat. Tadqiqot

quyidagi savollarga javob izlaydi: intellektual ko‘rsatkichlar qaysi shaxslilik xususiyatlari bilan bog‘langan; bu bog‘lanishlar ikki ta’lim shaklida bir xilmi; guruhlar qaysi bog‘lanishlar bo‘yicha farqlanadi.

TADQIQOT METODIKASI

Tadqiqotda Toshkent shahridagi uchta oliy ta’lim muassasasining 842 nafar talabasi ishtirok etdi: kunduzgi ta’lim – 430 nafar, masofaviy ta’lim – 412 nafar. Ikki nafar ishtirokchining anketasi to‘liq to‘ldirilmagani sababli tahlildan chiqarildi. Tadqiqot ixtiyoriy va anonim tarzda o‘tkazildi.

Intellektual xususiyatlar J.Ravenning progressiv matritsalari metodikasi bilan o‘lchandi[11]. Metodika beshta seriyadan iborat bo‘lib, topshiriqlar seriyadan seriyaga murakkablashadi: A seriya tasvirni to‘ldirish, B seriya shakllar juftliklari o‘rtasidagi o‘xshashlikni topish, C seriya shakllarning izchil o‘zgarish qonuniyatini aniqlash, D seriya shakllarni qayta guruhlash, E seriya esa shaklni elementlarga ajratish va qayta birlashtirishni talab qiladi. Raven topshiriqlarini bajarish operativ xotira resurslariga ham bog‘liq[12]. Tahlilda seriyalar bo‘yicha ballar va umumiy ball qo‘llanildi.

Shaxslilik xususiyatlari R.Kettellning 16PF so‘rovnomasi (16 ta birlamchi va 4 ta ikkilamchi omil, sten ballarda)[13; 14] hamda Katta beshlik so‘rovnomasining qisqartirilgan shakli[15; 16], qadriyatlar M.Rokichning qadriyat yo‘nalishlari metodikasining modifikatsiyalangan (1–5 ballik baholash) varianti[17], o‘quv motivatsiyasi T.D.Dubovitskaya metodikasi[18], o‘zini o‘zi baholash S.A.Budassi metodikasi yordamida o‘rganildi. 16PF so‘rovnomasining B omili (mantiqiy fikrlash) intellektni o‘lchashning yordamchi vositasi sifatida qaraldi.

Kolmogorov-Smirnov mezoni bo‘yicha shkalalar taqsimoti normal taqsimotga mos kelmagani bois bog‘lanishlar Spirmen korrelyatsiya koeffitsienti (rs) bilan har bir guruhda alohida hisoblandi. Korrelyatsiyalar faqat turli metodikalar ko‘rsatkichlari o‘rtasida hisoblanib, bir metodika ichidagi shkalalar o‘zaro korrelyatsiya qilinmadi. Guruhlardagi koeffitsientlar farqi Fisher r-to-z aylantirishi bilan baholandi: har bir koeffitsient $z' = 0{,}5 \cdot \ln[(1+r)/(1-r)]$ formulasi bo‘yicha aylantirilib, farq $z = (z'1 - z'2) / \sqrt{[1/(n1-3) + 1/(n2-3)]}$ formulasi bilan hisoblandi.

NATIJALAR

Raven seriyalari bilan eng barqaror bog‘langan to‘rtta 16PF omili bo‘yicha natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Raven ko‘rsatkichlari bilan 16PF ning B, G, M va Q3 omillari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar (rs)

Omil va guruh	A	B	C	D	E	Umumiy ball
B – mantiqiy fikrlash: masofaviy	0,073	0,187**	0,241**	0,242**	0,113*	0,256**
B – mantiqiy fikrlash: kunduzgi	0,140**	0,153**	0,160**	0,195**	0,048	0,193**

Omil va guruh	A	B	C	D	E	Umumiy ball
G – normativlik: masofaviy	0,098**	0,187**	0,247**	0,156**	0,041	0,222**
G – normativlik: kunduzgi	0,127**	0,051	0,180**	0,006	0,098*	0,137**
M – xayolparastlik: masofaviy	–0,103*	–0,172**	–0,285**	–0,241**	–0,135**	–0,277**
M – xayolparastlik: kunduzgi	–0,103*	0,006	–0,190**	–0,164**	–0,069	–0,147**
Q3 – o‘zini nazorat qilish: masofaviy	0,079	0,120*	0,136**	0,137**	0,119*	0,151**
Q3 – o‘zini nazorat qilish: kunduzgi	0,094	0,032	0,135**	–0,001	–0,005	0,090

Izoh: masofaviy ta’lim n=412, kunduzgi ta’lim n=430; A–E – Raven seriyalari; * – $p<0,05$; ** – $p<0,01$.

Ikki guruhda ham Raven ko‘rsatkichlari B omili bilan eng izchil ijobiy bog‘langan (masofaviy guruhda rs=0,256, kunduzgi guruhda rs=0,193). Masofaviy guruhda bu bog‘lanish C (rs=0,241) va D (rs=0,242) seriyalarda eng yuqori, natijalar past va tor oraliqda to‘plangan E seriyada esa kuchsiz (rs=0,113). C va D seriyalar shakllar o‘rtasidagi mavhum munosabatni topishni talab qiladi, masofaviy ta’limda esa talaba o‘quv materialidagi bog‘lanishlarni ko‘pincha o‘zi aniqlaydi.

M omili (amaliylik – xayolparastlik) masofaviy guruhda barcha seriyalarda manfiy bog‘langan (C seriya bilan rs=–0,285), kunduzgi guruhda esa B va E seriyalardan tashqari barcha ko‘rsatkichlarda manfiy bog‘langan. R.Kettell konsepsiyasiga ko‘ra, M omilining yuqori qutbi fantaziyaga moyil, ichki dunyoga yo‘naltirilgan, past qutbi esa amaliy, real va konkret fikrlash uslubini ifodalaydi[14]. Raven topshiriqlari ko‘rish orqali berilgan ma’lumotni izchil va tizimli tahlil qilishni talab etadi, xayolga berilish esa bunday vazifada diqqatni chalg‘itadi.

G omili (normativlik) bilan ijobiy bog‘lanish ham ikki guruhda takrorlandi (rs=0,222 va rs=0,137). O‘zini nazorat qilish (Q3) omili esa Raven umumiy bali bilan faqat masofaviy guruhda ahamiyatli bog‘langan (rs=0,151), kunduzgi guruhda u faqat C seriya bilan bog‘langan (rs=0,135). Masofaviy guruhda Q3 omilining B, C, D va E seriyalar bilan izchil bog‘lanishi o‘z faoliyatini rejalashtira oladigan va nazorat qila oladigan talabalar intellektual imkoniyatlarini amalda yaxshiroq ro‘yobga chiqarishini ko‘rsatadi.

Boshqa omillar bo‘yicha bog‘lanishlar kuchsizroq. Masofaviy guruhda E omili (hukmronlik) Raven umumiy bali bilan ijobiy (rs=0,127), C omili (emotsional barqarorlik) C seriya bilan ijobiy (rs=0,128), ikkilamchi F3 omili (qat’iylik) umumiy ball bilan manfiy (rs=–0,144) bog‘langan. Kunduzgi guruhda esa ikkilamchi omillarning manfiy bog‘lanishlari ko‘proq: F4 (mustaqillik) umumiy ball bilan rs=–0,139 (C seriya bilan rs=–0,182), F3 (qat’iylik) rs=–0,125, Q4 (zo‘riqish) rs=–0,103.

F4 omili bo‘yicha bog‘lanish kunduzgi guruhda (rs=–0,139) masofaviy guruhga (rs=–0,038) nisbatan kuchliroq bo‘lib, shaxsiy mustaqillik va intellektual faoliyat o‘rtasidagi munosabat ta’lim shakliga qarab o‘zgarishini taxmin qilishga asos beradi.

Raven ko‘rsatkichlari bilan Katta beshlik omillari o‘rtasidagi bog‘lanishlar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Raven umumiy bali bilan Katta beshlik omillari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar (rs)

Katta beshlik omillari	Masofaviy ta’lim (n=412)	Kunduzgi ta’lim (n=430)
Ekstraversiya	–0,022	0,077
Kelishuvchanlik	–0,045	–0,019
Vijdonlilik	0,018	0,025
Nevrotizm	0,074	–0,052
Tajribaga ochiqlik	–0,043	–0,029

Izoh: barcha koeffitsientlar p>0,05.

Har bir guruhda hisoblangan o‘ttizta koeffitsientdan faqat bittasi ahamiyatlilik chegarasiga yetgan (kunduzgi guruhda ekstraversiya bilan A seriya, rs=0,106; masofaviy guruhda nevrotizm bilan B seriya, rs=0,116; p<0,05), qolganlari nolga yaqin. Raven topshiriqlari yangi qonuniyatni topish qobiliyatini, Katta beshlik omillari esa kundalik xulq-atvor va hissiy javob berishning odatiy uslubini qamrab oladi. Tajribaga ochiqlik ikki guruhda ham intellekt bilan bog‘lanmagan. Buni qisqa shakldagi ochiqlik shkalasi bilishga qiziqishdan ko‘ra ko‘proq estetik va hissiy ochiqlikni qamrab olishi hamda Raven metodikasi to‘plangan bilimni emas, noverbal fikrlashni o‘lchashi bilan izohlash mumkin.

Raven ko‘rsatkichlari bilan qadriyat yo‘nalishlari o‘rtasidagi ahamiyatli bog‘lanishlar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval. Raven ko‘rsatkichlari bilan qadriyat yo‘nalishlari o‘rtasidagi ahamiyatli bog‘lanishlar (rs)

Qadriyatlar	Kunduzgi: umumiy ball	Kunduzgi: seriya	Masofaviy: umumiy ball	Masofaviy: seriya
Moddiy ta’minlanganlik	–0,099*	–	–	–
Muhabbat	–0,122*	B: –0,117*	0,083	A: 0,110*; B: 0,101*
Sodiq do‘stlar	–0,082	B: –0,096*	–	–
Faol hayot	–0,069	B: –0,106*	–	–
E’tiborlilik	0,051	E: 0,109*	0,105*	B: 0,127**
Mustahkam iroda	0,038	A: 0,110*	–	–

Izoh: “–” – ahamiyatli bog‘lanish yo‘q; * – p<0,05; ** – p<0,01.

Qadriyat yo‘nalishlari bilan bog‘lanishlar juda kuchsiz (|rs|<0,13). Kunduzgi guruhda o‘ttiz ikkita qadriyat va Raven shkalalari o‘rtasidagi korrelyatsiyalardan yettitasi, masofaviy guruhda beshtasi ahamiyatlilik chegarasiga yetdi. Biroq ularning yo‘nalishi guruhlarda farq qildi. Kunduzgi guruhda kundalik turmush va

yaqin munosabatlarga yo‘naltirilgan qadriyatlar (muhabbat, moddiy ta’minlanganlik, sodiq do‘stlar, faol hayot) intellekt bilan zaif manfiy bog‘langan, masofaviy guruhda esa muhabbat, e’tiborlilik va tarbiyalanganlik (B seriya bilan rs=0,100) zaif ijobiy bog‘langan. Bu qadriyatlar boshqa insonlarga munosabat va muomala madaniyatini ifodalaydi. Masofaviy ta’limda aloqa ko‘proq yozma shaklda kechadi, shu sharoitda topshiriq talablarini diqqat bilan o‘qish va muloqot qoidalariga rioya qilish o‘quv natijasi uchun ham ahamiyatli bo‘lishi mumkin.

Fisher mezoni bo‘yicha turli metodikalarga tegishli 345 ta juftlikdan 26 tasida guruhlar farqi p<0,05, 6 tasida p<0,01 darajasida ahamiyatli bo‘ldi. Farqlar asosan Raven va 16PF (11 ta) hamda 16PF va Katta beshlik (9 ta) bloklarida to‘plandi (4-jadval).

4-jadval. Guruhlar o‘rtasidagi bog‘lanish farqi ahamiyatli bo‘lgan juftliklar (p<0,01)

Ko‘rsatkichlar juftligi	Kunduzgi (rs)	Masofaviy (rs)	z	p
16PF F2 (ekstraversiya) × tajribaga ochiqlik	0,112*	–0,115*	3,30	0,001
16PF Q2 (mustaqillik) × tajribaga ochiqlik	0,092	–0,128**	3,19	0,001
16PF Q4 (zo‘riqish) × Budassi o‘zini o‘zi baholash	–0,105*	0,096	–2,93	0,003
Raven D seriyasi × 16PF E (hukmronlik)	–0,054	0,139**	–2,80	0,005
16PF F2 (ekstraversiya) × Budassi o‘zini o‘zi baholash	–0,121*	0,068	–2,73	0,006
Raven B seriyasi × 16PF M (xayolparastlik)	0,006	–0,172**	2,60	0,009

Izoh: * – p<0,05; ** – p<0,01.

Birinchi ikki juftlikda bog‘lanishning yo‘nalishi guruhlarda qarama-qarshi. Kunduzgi ta’limda tajribaga ochiqlik ijtimoiy faollik bilan birga namoyon bo‘lib, yangi tajriba talaba uchun asosan guruh muhitida, insonlar bilan muloqot orqali shakllanadi. Masofaviy ta’limda esa tajribaga ochiqlik ko‘proq mustaqil izlanish va ichki mulohaza bilan birga keladi. E’tiborli jihati shundaki, Mann-Uitni mezoni bo‘yicha F2 va tajribaga ochiqlik ko‘rsatkichlarining o‘rtacha darajasi guruhlarda farqlanmagan (p=0,056 va p=0,088), ya’ni guruhlar bu ko‘rsatkichlarda o‘rtacha daraja bo‘yicha emas, bog‘lanishlar tuzilmasi bo‘yicha farqlanadi.

Qolgan juftliklarda bog‘lanish bir guruhda ahamiyatli, ikkinchisida esa nolga yaqin. Masalan, masofaviy guruhda hukmronlik (E) Raven D seriyasi bilan ijobiy bog‘langan (rs=0,139), kunduzgi guruhda bu bog‘lanish kuzatilmagan. Bu masofaviy ta’lim sharoitida o‘z fikrini qat’iy ilgari surishga moyillik intellektual topshiriqni oxirigacha bajarishga yordam berishi mumkinligini ko‘rsatadi. Xayolparastlik (M) bilan B seriya o‘rtasidagi manfiy bog‘lanish ham faqat masofaviy guruhga xos (rs=–0,172).

MUHOKAMA

Olingan natijalar K.Stanek va D.Ones meta-tahlilidagi intellekt va shaxs o‘rtasidagi bog‘lanishlar asosan kuchsiz, biroq izchil ekanligi haqidagi xulosaga mos keladi[9]. Mazkur tadqiqotda ham bog‘lanishlarning aksariyati |rs|=0,10–0,28 oralig‘ida bo‘lib, ularning ikki mustaqil guruhda takrorlanishi tasodifiy emasligini ko‘rsatadi. Intellekt bilan Katta beshlik omillari o‘rtasida bog‘lanish yo‘qligi esa talabaning kirishimli yoki xotirjam bo‘lishi uning noverbal mantiqiy masalalarni yechish darajasi haqida xulosa qilishga asos bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Intellektual natija shaxsning bazaviy xususiyatlari bilan emas, faoliyatni tashkil etish va fikrlash uslubiga oid xususiyatlar (B, G, M, Q3) bilan bog‘liq.

Masofaviy guruhda Raven ko‘rsatkichlarining o‘zini nazorat qilish (Q3) va normativlik (G) bilan izchil bog‘langanini kuzatishimiz mumkin, ya’ni tashqi nazorat kamaygan sharoitda intizomlilik va o‘z faoliyatini rejalashtira olish intellektual salohiyatning ro‘yobga chiqishi bilan birga keladi. Bu J.Broadbent va W.Poon sharhidagi onlayn ta’limda o‘zini o‘zi boshqarishning roli haqidagi xulosaga mos keladi[4]. T.Bidjerano va D.Dai tadqiqotida ham shaxs xususiyatlari o‘quv faoliyatini o‘zi boshqarish strategiyalari orqali namoyon bo‘lishi ko‘rsatilgan[8].

Biroq, shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, korrelyatsion ma’lumotlar bu bog‘lanishlarning sababini ko‘rsatmaydi: tafovutlar ta’lim muhiti ta’sirida shakllangan bo‘lishi ham, masofaviy shaklni ma’lum xususiyatli talabalar tanlagani bilan bog‘liq bo‘lishi ham mumkin, shu bois natijalarni talqin qilishda ehtiyotkorlik lozim. Bundan tashqari, Fisher mezoni bo‘yicha 345 ta taqqoslashdan 26 tasining ahamiyatli bo‘lishi ko‘p taqqoslash sharoitida tasodifan kutiladigan miqdordan (taxminan 17 ta) unchalik ko‘p emas, shuning uchun eng ishonchli natijalar sifatida p=0,001 darajadagi ikki juftlik qaraladi. Tanlanma Toshkent shahridagi uchta oliy ta’lim muassasasi bilan cheklangani ham natijalarni umumlashtirish chegarasini belgilaydi.

XULOSA

1. Masofaviy va kunduzgi ta’lim talabalarida intellektual ko‘rsatkichlar mantiqiy fikrlash (B) va normativlik (G) omillari bilan ijobiy, xayolparastlik (M) omili bilan manfiy, kuchsiz darajada bog‘langan; masofaviy guruhda Raven umumiy bali o‘zini nazorat qilish (Q3) bilan ham bog‘langan, kunduzgi guruhda esa ikkilamchi F4 (mustaqillik) omili bilan manfiy bog‘lanish kuchliroq.

2. Katta beshlik omillari va qadriyat yo‘nalishlari ikki guruhda ham intellekt bilan amalda bog‘lanmaydi; qadriyatlar bilan yakka kuchsiz bog‘lanishlarning yo‘nalishi esa guruhlarda farq qiladi.

3. Ikki guruhda bog‘lanishlar tuzilmasi asosan o‘xshash, biroq F2 va Q2 omillarining tajribaga ochiqlik bilan bog‘lanish yo‘nalishi qarama-qarshi (z=3,30 va 3,19; p=0,001), garchi bu ko‘rsatkichlarning o‘rtacha darajasi farqlanmasa-da. Demak, talabalar guruhlarini psixologik qiyoslashda o‘rtacha qiymatlar bilan bir qatorda ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar tuzilmasini ham tahlil qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ta’lim to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son Qonuni [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/-5013007

2. Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 559-son qarori [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/-6221502

3. Лейбина А.В., Шукурян Г.А. Способы повышения эффективности онлайн-образования (обзор зарубежных исследований) // Современная зарубежная психология. – 2020. – Т. 9, № 3. – С. 21–33.

4. Broadbent J., Poon W.L. Self-regulated learning strategies and academic achievement in online higher education learning environments: A systematic review // The Internet and Higher Education. – 2015. – Vol. 27. – P. 1–13. – DOI: 10.1016/j.iheduc.2015.04.007.

5. Vos S.G., Wijnia L., Martens R., de Groot R.H.M. How do distance learners self-regulate learning? A latent profile analysis of self-regulated learning and its relationship with self-regulatory efficacy, motivation, need satisfaction, need frustration, academic achievement, and well-being // Learning and Individual Differences. – 2025. – Vol. 120. – Art. 102678. – DOI: 10.1016/j.lindif.2025.102678.

6. Ельшанский С.П., Ануфриев А.Ф., Камалетдинова З.Ф., Сапарин О.Е., Семенов Д.В. Особенности позитивных личностных качеств у студентов разных форм и курсов обучения // Проблемы современного образования. – 2016. – № 3. – С. 51–58.

7. Chamorro-Premuzic T., Furnham A. Personality predicts academic performance: Evidence from two longitudinal university samples // Journal of Research in Personality. – 2003. – Vol. 37, № 4. – P. 319–338.

8. Bidjerano T., Dai D.Y. The relationship between the Big Five model of personality and self-regulated learning strategies // Learning and Individual Differences. – 2007. – Vol. 17, № 1. – P. 69–81.

9. Stanek K.C., Ones D.S. Meta-analytic relations between personality and cognitive ability // Proceedings of the National Academy of Sciences. – 2023. – Vol. 120, № 23. – Art. e2212794120. – DOI: 10.1073/pnas.2212794120.

10. Малахова С.И. Связь психометрического интеллекта с личностной саморегуляцией студентов: дис. … канд. психол. наук: 19.00.07. – М., 2013. – 226 с.

11. Raven J. The Raven's Progressive Matrices: Change and stability over culture and time // Cognitive Psychology. – 2000. – Vol. 41, № 1. – P. 1–48. – DOI: 10.1006/cogp.1999.0735.

12. Rao K.V., Baddeley A. Raven's matrices and working memory: A dual-task approach // Quarterly Journal of Experimental Psychology. – 2013. – Vol. 66, № 10. – P. 1881–1887.

13. Cattell H.E.P., Mead A.D. The sixteen personality factor questionnaire (16PF) // Boyle G.J., Matthews G., Saklofske D.H. (eds.). The SAGE handbook of personality theory and assessment. Vol. 2. – London: SAGE, 2008. – P. 135–159.

14. Капустина А.Н. Многофакторная личностная методика Р. Кеттелла. – СПб.: Речь, 2001.

15. Rammstedt B., John O.P. Measuring personality in one minute or less: A 10-item short version of the Big Five Inventory in English and German // Journal of Research in Personality. – 2007. – Vol. 41, № 1. – P. 203–212.

16. Егорова М.С., Паршикова О.В. Психометрические характеристики Короткого портретного опросника Большой пятерки (Б5-10) // Психологические исследования. – 2016. – Т. 9, № 45. – С. 9.

17. Rokeach M. The nature of human values. – New York: Free Press, 1973.
18. Дубовицкая Т.Д. Методика диагностики направленности учебной мотивации // Психологическая наука и образование. – 2002. – Т. 7, № 2. – С. 42–45.